

MEZIAL PRIKUSNI DAVOLASHDA ELASTIKLARNI O'RNI

Po'latov Xamidullo Talyat o'g'li

*Andijon davlat tibbiyot instituti. Ortopedik stomatologiya
va ortodontiya kafedrasi assistenti*

Annotatsia: Mezial prikus - bu tez-tez uchraydigan stomatologik anomaliya bo'lib, pastki tish qatori yuqori tish qatoriga nisbatan ancha oldinda joylashishi. Ushbu noto'g'ri prikus turli xil funksional va estetik muammolarga olib kelishi mumkin. Yaxshiyamki, elastiklar mezial prikusni bartaraf qilish uchun yaxshi davolash usuli sifatida paydo bo'ldi. Ushbu maqola elastiklar mezial okklyuziyani davolashda o'ynaydigan muhim funktsiyani kashf etishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: elastiklar, foyda, tuzilish, funktsiya, natijalar, prikus, texnika.

Kirish: Bugungi kunda o'smirlar orasida mezial prikusni oldini olish va uni davolash muhim ortodontik muammo hisoblanadi. Tadqiqotlarning statistik ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi o'n yillikda ushbu patologiyaga chalinganlar soni ortganligini ko'rsatdi. Bundan tashqari, mezial prikusning skeletal tiplariham ortib bormoqda.

Tish-jag' tizimi anomaliyalar bor bemorlar ichida mezial prikus 16,9% bemorlarda uchraydi. Bu ko'rsatkich yuqori xisoblanishiga, mezial prikusni erta tashxislash va davolash uchun qo'llanadigan apparatlar va davolash texnikalarini yetishmovchiligi sabab bo'la oladi. Shu sabablarga ko'ra mezial prikusga uchragan bemorlar Ichida katta yoshlilar xam mavjud. Ma'lumki, mezial prikus anomaliyasiga uchragan bolalarda, pastki jag' yuqori jag'ga nisbatan oldinda joylashadi va oldingi kesuv tishlarida teskari qoplanishi bilan kechadi, bu o'z navbatida skeletal o'sishning ma'lum bir vaqtida chaynov funksiyasini buzilishiga olib keladi.

Davo choralari ko'rilmagan xolatda, pastki jag'ni nazotarsiz o'sishiga olib kelab, oxir oqibat skelet tuzilishining buzilishiga olib keladi. Bemorlar ortodontik davolanishga qanchalik kech murojaat qilsalar, anomaliyaning davolanish va prikus buzilishi mukammalashib boradi.

Bugungi kunga kelib, adabiyotlarda maktab yoshidagi bolalarda pastki jag'ning oldinga siljishi bilan bog'liq bo'lgan mezial prikusni davolash uchun ishlatilishi kerak bo'lgan ortodontik moslamalar haqida ma'lumotlar yetarli darajada emas.

Tadqiqotning materiallari: Ilmiy tadqiqotning materiali sifatida Andijon viloyat Andijon shaxarda yashovchi mezial prikus tashxisi bilan davolanayotgan maktab yoshidagi 100 nafar o'g'il va qiz bolalar tanlab olindi.

Tadqiqot davomida ushbu bemorlarga davolanish vaqtida jag'lar aro elastiklarni qo'llash tavsiya qilindi.

Olingan natijalar: Tadqiqotga olingan maktab yoshidagi 100 nafar bolalar 3 guruhga ajratildi: jag'lar aro elastiklarni ortodont ko'rsatmasi bilan to'liq foydalangan bemorlar (40), jag'lar aro elastiklardan kam foydalangan bemorlar (33), jag'lar aro elastiklardan foydalanmagan bemorlar (27).

Barcha guruhdagi bolalarda mezial prikusning davolanish vaqtida prikusning o'zgarishi o'rganib chiqildi. Bu o'zgarishlarga chaynov, nutq va nafas olish funksiyalarining o'zgarishi kiradi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, jag'lar aro elastiklardan ortodont ko'rsatmasi bilan to'liq foydalangan bemorlar jag'lar aro elastiklardan foydalanmagan bemorlarga nisbatan 2 baravar tezroq (ya'ni 18 oy), mezial prikus bartaraf qilish natijasiga erishildi.

Jag'lar aro elastiklardan kam foydalangan bemorlarda chaynov, nutq va nafas olish funksiyalarining yaxshi tarafga o'zgarishi jag'lar aro elastiklardan ortodont ko'rsatmasi bilan to'liq foydalangan bemorlardan ko'ra 4 oy farqi bilan kuzatildi.

Jag'lar aro elastiklardan foydalanmagan bemorlarda chaynov, nutq va nafas olish funksiyalarining yaxshi tarafga o'zgarishi juda sekin kechkanini va davolanish vaqti jag'lar aro elastiklardan ortodont ko'rsatmasi bilan to'liq foydalangan bemorlardan ko'ra 2 baravargacha uzoqroq davom etgani kuzatildi.

Xulosa: Mezial prikusni davolash vaqtdi ortodont arsenalida ko'plab texnika va ortodontik apparat va elementlar mavjud bo'lishi lozim. Ortodont mezial prikusni davolash vaqtini qisqartirish barqaror natijaga erishish uchun elastiklardan keng qo'llamda foydalanishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki mezial prikusni davolash vaqtida jag'lar aro elastiklardan foydalanish davolanish vaqtini qisqartirishiga chaynov, nutq va nafas olish funksiyalarining yaxshi tarafga o'zgarishiga yordam berishini inobatga olib, ortodont amaliyotida keng qo'llanishini ta'minlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kolesov M.A., Pankratova N.V. Ectodermal dysplasia and its manifestations in the oral cavity. *Orthodontics*. 2004;1:25:21-25.
2. Proffitt W.R. *Modern orthodontics*. Per. from English Ed.Persina L.S. M.: MEDpress-inform; 2008;102-103.
3. Tochilina T.A. Plan and prognosis of orthodontic treatment depending on the characteristics of the formation and formation of permanent teeth: Dis. ...cand. honey. *Sci. M.* 1985;25.
4. Khoroshilkina F.Ya., Samoilova N.V. Diagnosis and complex treatment for congenital dentition defects. In the book: *Orthodontics. Defects of teeth, dentition, malocclusion, morphofunctional disorders in the maxillofacial area and their complex treatment*. 2nd ed. M. 2010;530-555.